



**O'RTA OSIYODA MA'RIFAT VA MILLIY UYG'ONISH
G'OYALARI: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY FAOLIYATI MISOLIDA**

No'monov Kamronbek Kozimjon o'g'li

*Student of the Tashkent Kimyo International University of Namangan
Branch kamronbeknomonov76@gmail.com, +99 891 054 14 06*

Abdulxafizov Muhammadqodir Baxtiyor o'g'li

*Student of the Tashkent International University of Namangan Branch
abdulxafizovmuhammadqodir7@gmail.com +998 93 486 99 79*

Anotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda shakllangan jadidchilik tarixiy, ma'rifiy va ijtimoiy – siyosiy jarayon sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidchilikning shakllanishiga sabab bo'lgan ijtimoiy omillar, Ismoilbek G'aspirali ilgari surgan “usul-i jadid” g'oyalarining Turkiston hududida tarqalishi hamda Mahmudxo'ja Behbudiyning mazkur harakatdagi o'rni chuqur yoritilgan. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudi tomonidan yangi usul maktablarining tashkil etilishi “Oyna” gazetasi orqali ma'rifat g'oyalarini targ'ib etishdagi faoliyati, shuningdek, teatr va matbuot sohasida olib borgan islohatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Behbudi faoliyati O'rta Osiyo xalqlari orasida milliy ong va ma'rifatni shakllantirishda muhim o'rin tutgani, uning g'oyalari keyingi jadidlar — Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li va Abdurauf Fitrat ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Mahmudxo'ja Behbudi, Ismoilbek G'aspirali, usul-i jadid, marifat, yangi maktab, Turkiston, milliy uyg'onish, matbuot, teatr, Fitrat, Munavvarqori, O'rta Osiyo.

Abstract. This article analyzes the Jadid movement, which emerged in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries, as a historical, educational, and socio-political phenomenon. The study examines the social factors that contributed to the rise of Jadidism, the spread of Ismail Bey Gasprinski's “usul-i jadid” (“new method”) ideas throughout Turkestan, and the significant role of



Mahmudkhodja Behbudi in this movement. The article highlights Behbudi's establishment of new-method schools, his activities in promoting enlightenment ideas through the Oyina newspaper, and his reforms in the fields of theater and press, based on scholarly sources. Behbudi's efforts played a crucial role in shaping national consciousness and enlightenment among the peoples of Central Asia. His ideas profoundly influenced later Jadid figures such as Munavvarqori Abdurashidkhon ogli and Abdurauf Fitrat.

Keywords: *Jadidism, Mahmudkhodja Behbudi, Ismail Bey Gasprinski, Usul-i Jadid (New Method), enlightenment, new schools, Turkestan, national awakening, press, theater, Fitrat, Munavvarqori, Central Asia.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается джадидское движение, возникшее в Средней Азии в конце XIX — начале XX веков, как историческое, образовательное и социально-политическое явление. В исследовании анализируются социальные факторы, способствовавшие становлению джадидизма, распространение идей Исмаила-бея Гаспринского о «усул-и джадид» («новом методе») на территории Туркестана, а также значительная роль Махмудходжи Бехбуди в этом движении. В статье подчеркивается деятельность Бехбуди по созданию школ нового метода, его усилия по распространению просветительских идей через газету «Ойина», а также реформы в области театра и печати, основанные на научных источниках. Деятельность Бехбуди сыграла важную роль в формировании национального самосознания и просвещения среди народов Средней Азии. Его идеи оказали глубокое влияние на последующих джадидов — таких как Мунавварқари Абдурашидхон оглы и Абдурауф Фитрат.*

Ключевые слова: *Джадидизм, Махмудходжа Бехбуди, Исмаил-бей Гаспринский, усул-и джадид (новый метод), просвещение, новые школы, Туркестан, национальное пробуждение, печать, театр, Фитрат, Мунавварқари, Средняя Азия.*

KIRISH



XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab XX asrning boshlarigacha bo'lgan davr oralig'ida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati mintaqa tarixida chuqur ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlarni boshlab bergan muhim jarayonlaridan biri bo'ldi. Ushbu harakat musulmon jamiyatini, xususan O'rta Osiyo xalqi uchun zamon talablari asosida isloh etish, ta'lim-tarbiyani yangilash, milliy o'zlikni anglash ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etishga qaratilgan yo'nalish bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Jadidchilikning asosiy tamoyili bo'lgan "usul-i jadid" yangi usulda o'qitish tizimi, Ismoilbek G'aspirali tomonidan ilgari surilib, butun Turkiston hududida keng tarqaldi. Mahmudxo'ja Behbudiy esa ushbu harakatning eng yirik namoyandalaridan biri sifatida jadidchilik g'oyalarini nafaqat targ'ib qilgan, balki ularni amaliy faoliyatida keng tatbiq etgan. U yangi usul maktablarini tashkil etib, zamonaviy ta'lim tizimiga asos soldi, "Oyna" gazetasi orqali xalqni ma'rifat va taraqqiyot sari chorlagan, teatr va matbuot sohasida tub o'zgarishlarni boshlab bergan. Behbudiy faoliyati O'rta Osiyo xalqlari orasida milliy uyg'onish, erkin fikrlash va ijtimoiy ongning shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Shu sababli, Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik harakatidagi o'rni va faoliyatini o'rganish, nafaqat tarixiy jarayonlarni, balkiy O'rta Osiyoda milliy o'zlik g'oyalarini shakllanishini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Mazkur davrga oid bir qator manba va adabiyotlar mavjud bo'lib, ushbu adabiyotlar bizga o'z ichidan bir-biriga o'xshamagan ma'lumotlarni beradi. Bunga misol tariqasida Adeed Khalidning asarida jadidchilik harakatlarini boshlanish jarayonlari yoritilgan[1]. Tuna Mustafa ham ushbu mavzuga yaqin yondashgan holda o'z asarida shuni yoritadiki Jadidchilik harakatlarini boshlab bergan Qirimlik Ismoil G'aspiralini harakatlari, ushbu yo'nalish bo'yicha nimalar qilgani, harakatni qay tarzda boshlagani haqida qiziqarli malumotlarni berib o'tgan[2]. Jadidchilik harakatlari boshlangach undagi yirik voqea va hodisalarini Jonuzaqov Adhamjonning "Turkistonda Jadidchilikning vujudga kelishi" asarida o'qib o'rganishimiz mumkin. Ushbu asarda shuni yoritiladiki Ismoil G'aspiraliga



yondashgan holda ish ko'rgan Jadidlar haqida yani bularga misol Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va boshqa Jadidlarning qilgan ishlari hususida so'z yurutgan[4].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'rta Osiyoda jadidchilik harakati XIX asrning oxiri – 1890- yillarda shakillana boshlagan bo'lib, uning ildizlari Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan musulmon mintaqalarda, xususan, Qirim, Qozon, Boku va Orenburg rivojlangan “usul-i jadid” (yangi usulda o'qitish) tizimidan oziqlangan. Bu g'oya daslab Qirimlik Ismoilbek G'aspirali (1851-1914) tomonidan ilgari surulib, 1884-yilda Qirimning Boqchasaroy shahrida ochilgan birinchi yangi usul maktabi orqali joriy etilgan. Uning **“Til, fikr va ishda birlik”** shiori asosida shakllangan marifatparvarlik g'oyalari tez orada Turkiston o'lkasiga ham kirib keldi. 1890–1900-yillar oralig'ida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xiva shaharlarida yangi usul maktablari ochila boshladi[1]. Ismoil G'aspirali **1851-yil 8-martda Qrimning Boqchasaroy shahrida** tug'ilgan. Dastlabki ta'limni madrasada, keyin esa **Sevastopol va Voronej harbiy gimnaziylarida** olgan. Bu ta'lim unga G'arbning ilmiy va texnik taraqqiyotini chuqur tushunish imkonini berdi[2]. Jadidchilik harakati o'z mohiyatiga ko'ra, marifatparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalari asoslangan ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakat edi. Uning asosiy maqsadi musulmon jamiyatini jaholat, ilmsizlik va eskicha fikirlashdan xalos etib, uni ilm-fan, taraqqiyot va madaniyat yo'liga yo'naltirish edi. Jadidlar “Taraqqiy” va “Marifat” tushunchalarini o'z faoliyatlarining markaziga qo'yganlar. Ularning fikricha, musulmon xalqlari Yevropa davlatlaridan orqada qolishining sababi – siyosiy mustaqillikning yuqligi emas, balki talim tizimining zamon talablariga mos emasligi edi. Shu bois, jadidchilik harakati, avvalo, talim sohasini isloh qiloish, yani “usul-i jadid” yangi usulda o'qitish tizimini joriy etishni bosh maqsad qilib oldi[3]. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga kelishida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Saidahmad Siddiqiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy, Isoqxon to'ra Ibrat, Hamza, Cho'lpon kabi siymolarning harakatlari etiborga



loyiqdir[4]. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilda **Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumaniga yaqin joydagi Behbud qishlog‘ida** tug‘ilgan. U diniy-islomiy an‘analar kuchli bo‘lgan oilada o‘sgan. Otasi **xo‘ja Behbud** — qozilik lavozimida ishlagan, onasi esa ma‘rifatparvar ayol bo‘lgan. Behbudiy dastlab **Samarqanddagi madrasalarda** ta‘lim olgan, so‘ngra **Arabiston, Turkiya, Misr va Suriyaga** sayohat qilgan (taxminan 1899–1900-yillarda). Aynan bu sayohatlar uning dunyoqarashiga katta ta‘sir ko‘rsatgan va uni musulmon dunyosidagi **modernizatsiya** jarayonlari bilan tanishtirgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z faoliyatini marifat, milliy uyg‘onish va isloh g‘oyalari bilan boshlagan. Behbudiy, Ismoilbek G‘aspiraliilgari surgan “usul-i jadid” talim tizimini Turkiston sharoitiga moslashtirib, 1903-yilda Samarqanda birinchi yangi usul maktabini tashkil etgan. Bu maktabda o‘quvchilar o‘qish yozish, hisob-kitob, geografiya, tarix va tabiatshunoslik fanlarini o‘rganishgan[5]. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yildan matbuot ishlarini yo‘lga qo‘ygan va shu yilning aprelidan “Samarqand” gazetasi hamda avgust oyidan “Oyina” jurnali chiqqa boshlagan. “Samarqand” gazetasi o‘zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 1913-yil 17-sentyabrda gazetaning 45-soni chiqqan bo‘lib, bir tomondan, mustamlakachilar senzurasini, ikkinchi tomondan, yetarli mablag‘ bo‘lmagani sabab to‘xtatilgan. “Oyina” haftalik jurnal bo‘lib, o‘zbek va tojik tilidagi maqolalar berib borilgan. Uning obunachilari nafaqat Turkiston, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyada ham bor edilar. 1915-yilgacha nashr qilingan jurnalda Turkiston aholisining haq-huquqi, tarixi, til-adabiyot masalalariga bag‘ishlangan g‘oyat muhim maqolalar, bahslar berib borilgan[6]. Behbudiy matbuotda faol bo‘lib, o‘z maqolalarida xalqni ilm marifatga chorlash, talimning yangi usullarining joriy etish va ayollarning o‘qishi muhimligini targ‘ib qilgan. Uning “Samarqand” gazetasi va boshqa nashrlarda chop etilgan maqolalari orasida quyidagilar alohida ajralib turadi. “Millat, vatan, hurriyat”. Bu maqolada milliy ong va erkinlik haqida so‘z boradi. Maktab va madrasalar islohoti”. Ushbu maqolaning maqsadi ta‘lim tizimini zamonaviylashtirishga bag‘ishlangan. “Ziyoliylarga murojat”. Yoshlarni ilm olishga



da'vat qiluvchi mavzuni esa ushbu maqoladan topishingiz mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiy tarjimai va darsliklariga to'htaladigan bo'lsak, olim arab va fors tillaridan ilmiy va ma'rifiy asarlarni tarjima qilgan[7]. Behbudiy o'z faoliyati davomida oddiy xalqqa foydasi sezilarli darajada tekkan Jadidlardan hissoblanadi. Uning qilgan yana bir yirik ishlaridan 1908-yili "Qiroatxonayi Behbudiya" (keyinchalik "Behbudiya" nomi bilan mashhur bo'lgan) kutubxonasini ochadi. Ushbu kutubxona ikki navbatda soat 9:00 dan 17:00 gacha va soat 18:00 dan 24:00 gacha faoliyat yuritib, 60-110 atrofida kitobxonga xizmat ko'rsatgan. Alloma "Samarqand kutubxona islomiyasi" maqolasida kutubxonada 600 dan ortiq kitob va risola, gazeta va jurnallar esa undan ham ko'p bo'lganini yozadi[8]. So'nggi yillarda u Samarqandda o'qituvchilik, diniy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullandi. **1918-yilda** u "*Islom dinining asl mohiyati*" mavzusida chiqishlar qilib, dinni zamon bilan uyg'un holda tushunish zarurligini targ'ib qildi. 1919-yilning boshida Behbudiy Buxoroga safar qilganida, **Buxoro amirligi politsiyasi** tomonidan "inqilobiy g'oyalarni targ'ib qiluvchi" sifatida hibsga olindi. Uning jadidlik faoliyati va Muxtoriyat tarafdori bo'lgani uchun, amirlik amaldorlari uni "davlatga qarshi" deb ayblashdi. 1919-yilning mart oylarida u **Buxoroda qatl etiladi**. Uning o'limi o'zbek ma'rifatparvarlik harakati uchun katta yo'qotish bo'ldi.

XULOSA

O'rta Osiyoda jadidchilik harakati milliy uyg'onish tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu harakat mustamlakachilik sharoitida yashayotgan musulmon xalqlarning siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotini yangilashga qaratilgan g'oyaviy va amaliy kurash bo'ldi. Jadidlar ta'lim, matbuot, adabiyot va siyosat orqali xalqni zamon ruhiga uyg'un rivojlanishga undadilar. Mahmudxo'ja Behbudiy ana shu harakatning peshqadami sifatida o'z davrining eng ilg'or fikrli ma'rifatparvari, siyosiy arbobi va publitsisti bo'ldi. U xalqni ilm, ma'rifat va tafakkur orqali ozodlikka yetaklash mumkin, degan g'oyani ilgari surdi. Behbudiyning pedagogik faoliyati, "*Oyna*" jurnalidagi chiqishlari, "*Padarkush*" dramasi va siyosiy tashabbuslari jadidchilik mafkurasining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Shunday qilib, Mahmudxo'ja Behbudiy shaxsida O'rta Osiyo jadidchilik



harakatining eng yuksak bosqichi — **maʼrifat, milliy ong va siyosiy uygʻonish** mujassamdir. Uning gʻoyalari bugungi kunda ham milliy mustaqillik, taʼlim islohoti va maʼnaviy taraqqiyotning nazariy asoslarini boyitishda oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Adeed Khalid. University of Californiya Press, Berkeliy Los Angeles – 1998 – P. 335-351.
2. Tuna Mustafa. The making of a Russian Muslim Intelegentsia and the origins of Jadidism – 2017 – P. 257-281.
3. Tuna Mustafa. The making of a Russian Muslim Intelegentsia and the origins of Jadidism – 2017 – P. 257-281.
4. Jonuzaqov Adhamjon Abdullahatovich. “Turkistonda jadidchilikning vujudga kelishi”. – P. 58-60.
5. Zaynobiddin Abdurashidov. Mahmudhoʻja Behbudiy. Yoshlar nashriyoti uyi; Toshkent – 2002 – P. 6-22.
6. [undefined undefined](#)
7. xadicha.uz/uz/news/776
8. Atayeva Xulkaroy Murod qizi. Mahmudhoʻja Behbudiy manaviyat va marifat targʻibotchisi. – 2025 – 62-64.